

O‘SMIRLIK YOSHIDAGI BOLALARNING SHAKLLANISHIDA OILAVIY MUHITNING AHAMIYATI

Karimovna Sora To'xtayeva

Qiziltepa tumani 10-maktab psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘smirlik yoshidagi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida oilaviy muhitning ahamiyati yoritilgan. Oiladagi psixologik muhit, ota-onalarning tarbiyaviy yondashuvi hamda oila a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlarning o‘smir ruhiyatiga ta‘siri tahlil qilingan. Shuningdek, sog‘lom oilaviy muhitni shakllantirishning psixologik jihatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik davri, oilaviy muhit, tarbiya, psixologik rivojlanish, emotsional holat, ota-ona, muloqot, shaxs shakllanishi, ruhiy salomatlik, ijtimoiy muhit.

KIRISH

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab va mas‘uliyatli bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda bolaning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida katta o‘zgarishlar yuz beradi. Aynan shu davrda oilaviy muhit o‘smirning shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin egallaydi.

Oila bolaning ilk tarbiya maskani bo‘lib, undagi munosabatlar o‘smirning xarakteri, dunyoqarashi va xulq-atvoriga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Mehr-oqibat, hurmat va ishonchga asoslangan oilada voyaga yetayotgan o‘smirlar ruhiy jihatdan barqarorroq bo‘ladi. Aksincha, oiladagi nizolar, befarqlik yoki zo‘ravonlik bolaning ruhiyatiga salbiy ta‘sir qilishi mumkin. Ota-onalarning tarbiyadagi yondashuvi o‘smirning shaxsiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Farzandni tushunish, uning fikrini tinglash va qo‘llab-quvvatlash o‘smirda o‘ziga ishonch hissini shakllantiradi. Haddan tashqari qattiqqo‘llik yoki nazorat esa o‘smirning ichki noroziligiga va agressiv xatti-harakatlarga sabab bo‘lishi mumkin.

O‘smirlik davrida bolalar mustaqillikka intiladi. Shu sababli ota-onalar farzandiga ma‘lum erkinlik berishi bilan birga, unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi kerak. Do‘stona muloqot

va o'zaro ishonch oiladagi sog'lom psixologik muhitning asosiy belgilaridan biridir. Oilaviy muhit o'smirning emotsional holatiga ham katta ta'sir qiladi. Oilada mehr va e'tibor yetarli bo'lsa, o'smir o'zini xavfsiz va qadrlangan his qiladi. Bu esa uning ruhiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarning kuchli ta'siri sababli ota-onalarning nazorati va ma'naviy qo'llab-quvvatlashi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ota-onalar farzandining qiziqishlari, do'stlari va bo'sh vaqtini qanday o'tkazayotganiga e'tibor qaratishi zarur.

Maktab va oila hamkorligi ham o'smir tarbiyasida muhim omil hisoblanadi. O'qituvchi va psixologlar bilan muntazam aloqada bo'lish ota-onalarga farzandining ruhiy holati va xulq-atvoridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi.

Sog'lom oilaviy muhitda ulg'ayayotgan o'smirlar odatda mas'uliyatli, mehribon va ijtimoiy faol bo'lib voyaga yetadi. Shu sababli oilada ijobiy munosabatlarni shakllantirish o'smir tarbiyasining eng muhim shartlaridan biridir. Bola kamolotining bu davrini ko'pincha «qiyin», «murakkab», «muhim» davr deyiladi. Ota-onalar hamda hali tarbiyaviy ish sohasida yetarli tajribaga, shuningdek o'smirlik yoshidagi bolalarning yosh va individual xususiyatlari haqida zarur bilimlarga ega bo'lmagan yosh pedagoglar, odatda o'smirlarni tarbiya-lash juda qiyin deb o'ylaydilar. Lekin hozirgi kunda o'smirlarni tarbiyalashni o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, xatti harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari fanga ma'lumdir. O'smirlik davri o'zining taqlidchanligi, muhim nuqtai nazarning shakllanmagani, hissiyotga beriluvchanligi, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Bu o'smirlarga xos xususiyatdir. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor berish talab qilinadi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zgarishlar biologik, fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir.

O'smir yoshdagi bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash zamonaviy jamiyatning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu jarayon nafaqat bilim berish, balki to'g'ri munosabatlar tizimini shakllantirish, axloqiy qadriyatlarni singdirish va psixologik tayyorgarlikni ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Joriy davrda o'smirlar orasida oilaviy hayotga tayyorlik

darajasining pasayishi, oila ajralishlarining ko‘payishi va noto‘g‘ri oilaviy munosabatlar tufayli yuz beradigan ijtimoiy muammolarning kuchayishi kuzatilmoqda. Bu holat sharq mutafakkirlarining boy pedagogik merosiga murojaat qilish zaruratini tug‘dirmoqda. Sharq mutafakkirlari asrlar davomida inson tarbiyasi, shaxslararo munosabatlar va oilaviy qadriyatlar haqida chuqur fikrlar yuritganlar. Ularning pedagogik g‘oyalari bugungi kunda ham o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Abu Nasr Forobiy o‘z asarlarida ta’lim-tarbiya jarayonida shaxslararo munosabatlarning ahamiyatini alohida ta’kidlagan. Uning fikriga ko‘ra, mukammal shaxsni tarbiyalash uchun quyidagi shartlar zarur:

Individual yondashuv: Har bir o‘quvchining tabiati, ruhiyati va individualligini hisobga olish;

Axloqiy tarbiya: Tarbiyaning asosiy predmeti axloqlilik hisoblanadi;

Ma’naviy rivojlanish: Tafakkur va nutqning rivojlanishini shaxsiy va ijtimoiy kamolotning asosi deb bilgan. Forobiy oilaviy munosabatlar haqida yozarkan, “Fozil odamlar shahri” asarida ideal jamiyatning asoslari - adolat, o‘zaro hurmat va hamkorlik ekanligini ta’kidlagan. Bu g‘oyalar zamonaviy oilaviy hayotga tayyorlashda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ibn Sino o‘z asarlarida komil inson tarbiyasi masalalariga katta e’tibor qaratgan. Uning fikriga ko‘ra, mukammal shaxsni shakllantirish uchun:

1. Tabiiy qobiliyatlarni rivojlantirish - har bir bolaning individual imkoniyatlaridan foydalanish zarur;
2. Axloqiy fazilatlarni singdirish - halollik, sahovat, dovyuraklik kabi fazilatlarni tarbiyalash ;
3. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish - nafaqat o‘zi uchun, balki boshqalar uchun ham yashash g‘oyasini singdirish.

Ibn Sino oilaviy hayotga tayyorlashda ota-onalarning roli haqida alohida fikr bildirgan. Uning ta’limotiga ko‘ra, ota-ona bolaning birinchi ustoz bo‘lib, uning axloqiy va ma’naviy rivojlanishiga bevosita ta’sir etadi.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida ta’lim-tarbiya masalalarida insonparvarlik g‘oyalari bosh o‘rinda tutgan. U oila va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘lanishni quyidagicha izohlagan:

Oilada tarbiya: Uyda yorituvchi deb hisoblagan bolani shakllantirish va tarbiyalash masalalari muhim;

Hurmat va muhabbat: O‘quvchiga hurmat - insonning eng yuksak in’omi, bolalarga muhabbat va izzat ko‘rsatish zarur;

Ma’rifatparvarlik: Yosh avlodni Vatanga muhabbat, insonga hurmat - olamning eng yuksak va qadrli in’omini tarbiyalash.

O‘smirlik davri (13-16 yosh) shaxs rivojlanishida o‘tish davri bo‘lib, quyidagi xususiyatlarga ega:

Shaxsiy identifikatsiya qidiruvi - o‘zining o‘rnini topishga intilish;

Do‘stlik ehtiyoji - tengdoshlar bilan munosabatlarga katta e’tibor;

Romantik qiziqish - qarshilik va muhabbat mavzusiga qiziqishning ortishi.

Munosabatlar tizimini shakllantirish usullari. Sharq mutafakkirlari g‘oyalari asosida munosabatlar tizimini shakllantirishning quyidagi yo‘nalishlari aniqlangan:

1. Nasihat va suhbat - Forobiyning “ishontirish va ilhom berish” usuli asosida
2. Shaxsiy namuna - Ibn Sinoning “misol bilan o‘rgatish” tamoyili
3. Tizimli tarbiya - Navoiyning “oilada va maktabda uyg‘un tarbiya” g‘oyasi orqali shakllantirish yo‘llari mavjud.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda sharq mutafakkirlari g‘oyalari qo‘llash quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

1. Innovatsion texnologiyalar - MOODLE platformasi orqali masofaviy o‘qitish;
2. O‘yin texnologiyalari - o‘smirlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda o‘qitish;

3. Interaktiv usullar - vebinar texnologiyasi va muammoli ta’lim.

Oilada Munosabatlar Tizimini Yaratish. Oila muhitida sharq g'oyalari asosida munosabatlar tizimini yaratish quyidagi tamoyillar bo'yicha amalga oshiriladi:

Ota-onalarning shaxsiy namunasi - bolalarga ko'rsatiladigan axloqiy o'lchov;

O'zaro hurmat va muhabbat - oiladagi issiq munosabatlar asosi;

Maslahatlashish madaniyati - bolalar fikrini hurmat qilish va hisobga olish.

O'smirlik yoshining o'ziga xos xususiyatlari kattalardan ularga nisbatan jiddiy munosabatda bo'lish lozimligini taqozo qiladi. Kattalar ular faoliyatini nazorat qilishlari, faoliyat motivlarini doimo e'tibordan chiqarib qo'ymasliklari lozim, aks holda o'smir hayotida noxush xususiyatlarning paydo bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun o'smirlik yoshi bola taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega.

O'smirning jismoniy jihatdan o'sishida jinsiy balog'atga yetish katta rol o'ynaydi, jinsiy balog'atga yetish o'smir organizmi faoliyatida jiddiy o'zgarishlar yasaydi. Jinsiy balog'at natijasida o'smirlarda o'ziga xos psixik holat vujudga keladi. Shuning uchun bu davrda maktab va oilada ta'lim- tarbiya ishlari to'g'ri yo'lga qo'yil- masa, o'smirning yosh fiziologik xususiyatlari xisobga olinmasa, uning xulq atvoridagi salbiy sifatlar ortib borib, bola xarakterining tarkib topishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va keyingi hayoti davomida ham o'zgartirish qiyin bo'lgan chuqur iz qoldirishi mumkin. O'qituvchilar, tarbiyachilar, sinf rahbarlari dastavval shuni chuqur anglashlari lozimki, jinsiy yetilish organizmning jismoniy taraqqiyotga ta'sir qilishdan tashqari o'smirning psixik taraqqiyotiga ham albatta ta'sir qiladi. O'smirlarda jinsiy yetilish munosabati bilan shu paytgacha ularga noma'lum bo'lgan va qandaydir ma'noda ular uchun kutilmagan jinsiy moyillik va tegishli fikrlar, xislar, kechinmalar, qarama-qarshi jinsga spetsifik qiziqish, ma'lum mazmundagi kitoblarga, kinofilmlarga, kattalarning gaplariga bo'lgan qiziqishlarning paydo bo'lishi mutlaqo zarur, tabiiy va me'yoriy holdir.

Jinsiy tarbiyaning muhim vositalaridan biri o'smirlar diqqatini odamlar o'rtasidagi intilish munosabatlar doirasidan boshqa ob'ektlarga ko'chirishdir. Bu o'smirlar diqqatining jinsiy kechinmalar ustida to'rejaishini ozaytiradi. O'smirning hayot kechirish

tarzi va uning psixik taraqqiyotga ta'siri. Kichik yoshdagi o'quvchilardan farqli ravishda o'rta yoshdagi o'quvchilarning hayot kechirish tarzida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Oilada, maktabda va o'quvchilar jamoasida o'smirning mavqei sezilarli darajada o'ziga xos xususiyatlarni yuzaga keltiradi. O'smirlarning oila a'zolari bilan ham yangicha munosabat o'rnatishlari lozim bo'ladi. O'smir shaxsining takomillashuvi va shakillanishiga turtki bo'lgan omillardan biri o'quv faoliyati motivlaridagi sifat o'zgarishlardir. O'smir endi faqat bilimlar tizimiga ega bo'lish, o'qituvchining maqtovini eshitish va «5» baholarni ko'paytirish uchun emas, balki tengqurlari orasida ma'lum ijobiy mavqeni egallash, kelajakda yaxshi odam bo'lish uchun o'quv motivlari ustuvor bo'lib boradi, lekin o'quv faoliyati motivlari orasida bilish, yangi bilimlarga ega bo'lish motivi kuchsiz bo'lgani sababli, ular maktabga borgisi kelmaydi, o'qishga og'rinib kelib, salbiy xis tuyg'ular va xavotirlik xislarini boshdan kechiradi. Kattalar tomonidan o'smirning yurish turishi, xulqiga javob berish talab qilinadi. O'smirga uning ilgari qondirilib kelinayotgan ehtiyoj va xohishlari endi qondirilmasligi, ularning ko'pidan voz kechish lozimligi uqtiriladi. O'smir qiyinchilik bilan bo'lsada, o'zining yangi mavqeini tushuna boshlaydi, o'z xulqini o'zgartirib unga moslasha boradi.

Maktabda o'smirning mavqei yanada keskin o'zgaradi. Uni endi bir necha o'qituvchi o'qitadi. O'smir oldida har bir o'qituvchining o'ziga xos metod va usullariga moslashish, ularning talablarini anglab, bilib olish kabi murakkab vazifa turadi. Endi o'smir ko'pgina yangi o'quv fanlarini o'rganib olishi kerak bo'ladi. O'smirning bolalar jamoasiga bo'lgan munosabati ham murakkablashadi. O'smirga o'zining o'qishi, mehnati va xatti-harakatlariga mas'uliyat bilan qarash jamoat topshiriqlarini aniq bajarish, bilim va ko'nikmalarni egallashda reja bo'yicha sistemali ravishda ko'tarila borish kabi avvalgidan ko'ra jiddiyroq talab quyiladi.

O'smirning oiladagi mavqeining o'zgarishi, maktabda o'qishning yangi sharoiti, bolalarning ijtimoiy hayotida murakkab munosabat-lar o'rta yoshdagi o'quvchilar oldiga ko'pgina yangi talablar qo'yadi va ularning butun psixik hayotida yangi qiyinchiliklar tug'diradi. Avval mustahkam o'rnashib qolgan ko'nikma va malakalar yangi hayot kechirish tarziga ko'p jihatdan mos kelavermaydi. Shuning uchun o'smirlarning psixik

jihatdan normal hayot kechirishi va o‘shini ta‘minlash uchun o‘smirlik yoshining o‘ziga xos psixologik xususiyatlari e‘tiborga olingan ta‘lim-tarbiyaviy tadbirlar qo‘llanilishi zarur. O‘smirlik davri qarama-qarshiliklarga boy davrdir. Uni ba‘zi olimlar « krizislar » « tanazzullar » davri ham deb ataydilar. Sababi o‘smir ruhiyatida shunday inqiroziy holatlar ro‘y beradiki, u bu inqirozni bir tomondan o‘zi hal qilgisi keladi, ikkinchi tomondan, o‘zi hal qilishga imkoniyati, kuchi va aqli yetmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘smirlik yoshidagi bolalarning shakllanishida oilaviy muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega. Oiladagi mehr-oqibat, ishonch va sog‘lom muloqot o‘smirning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ota-onalarning to‘g‘ri tarbiyaviy yondashuvi esa barkamol va ma‘naviy yetuk shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Davletshin M.G. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik texnologiya. T., 2004.
2. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi psixologiya. T., 1998.
3. Vohidov M.V. Maktabgacha tarbiya psixologiyasi. T., “O‘qituvchi”, 1970
4. G‘oziev E. Psixologiya. T., “O‘qituvchi”, 1994
5. Krutetskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. T., “O‘qituvchi”, 1976
6. Karimova V. Va boshqalar. Mustaqil fikrlash. T., “Sharq”, 2000
7. Ahloq-odobga doir hadis namunalari.-T., 1990